

MAKTABDA MUMTOZ ADABIYOTNI O'QITISH MUAMMOLARI

Shahnoza Norqulova

PhD, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10888133>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabda mumtoz adabiyotni o'qitish muammolari va berilgan parchalar yuzasidan ayrim mulohazalar keltirib o'tilgan. Maqola davomida yo'l qo'yilgan ba'zi kamchiliklarga to'xtalib o'tilgan hamda yechim sifatida taklif, mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, adabiyot darsliklari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, to'g'rilik va egrilik.

PROBLEMS OF TEACHING CLASSIC LITERATURE AT SCHOOL

Abstract. In this article, some comments on the problems of teaching classical literature at school and the given excerpts are given. In the course of the article, some of the shortcomings have been touched upon, and suggestions and comments have been made as a solution.

Key words: classic literature, literature textbooks, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, straightness and crookedness.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ШКОЛЕ

Аннотация. В статье даются некоторые комментарии по проблемам преподавания классической литературы в школе и приводятся отрывки. В ходе статьи были затронуты некоторые недостатки, а также высказаны предложения и замечания в качестве решения.

Ключевые слова: классическая литература, учебники литературы, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, прямолинейность и кривизна.

O'rta maktablarning adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyotning o'qitilish muammosi dolzarb bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim qirralarni namoyon etadi. Masalan 5-sinfning adabiyot darsligida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur siymolari o'tiladi. "Hayrat ul-abror" dostonining o'ninchi maqolati va "Sher bilan durroj" hikoyati o'rganiladi. Birinchi navbatda maqolat va hikoyatning asl matni beriladi, so'ngra xuddi shu maqolat va hikoyatning nasriy bayoni, ya'ni ma'nosi keltiriladi.

Endi darslikdagi ana shu Alisher Navoiy qismini bir boshdan ko'rib chiqaylik, avvalo, shoir tarjimai holi qisqacha bayon etiladi. So'ng aytilgani kabi "Hayrat ul-abror" dostonidan o'ninchi maqolat va hikoyat beriladi. Uning izidan maqolat va hikoyatning nasriy mazmuni keltirilib, uning tushunilishi yengillashtiriladi. Shundan keyin dostondan to'g'rilik va egrilik to'g'risida degan qism keladi. Bu qismda "Hayrat ul-abror" dostoni 63 bobdan iborat ekani, turli mavzular sharhiga bag'ishlangan 20 ta maqolat borligi va shu mavzularga mos 20 ta hikoyat mavjudligi gapiriladi.

Ana shu to'g'rilik va rostlik haqida tushunchalar izohi berilgan qism ancha o'rinli. Chunki bu qism 5-sinf bolalariga to'g'rilik va rostlik xususida katta tasavvur beradi va ularni shu ruhda tarbiyalashda ahamiyati jihatidan ancha muhim.

Mavzu oxirida "Savol va topshiriqlar" qismi beriladi, ularning miqdori 26 ta. Savollarning darajasi 5-sinf bolalari saviyasiga moslab tuzilgan, lekin ochig'i ba'zi topshiriqlar

og'irroq tuyuladi. Masalan, "Alisher Navoiy siyosining milliy-ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni haqida so'zlab bering", "Navoiy she'riyati qanday to'plamlarda jamlangan?" va boshqalar. Bundan tashqari xamsanavislik an'anasi, shoirning keksaligi va asarlari, majoziy obrazlar kabi savollar ham 5-sinf o'quvchilariga og'irlik qiladi. Basharti savol va topshiriqlar qismi o'qituvchiga mo'ljallangan bo'lsa, bu o'rinli, lekin savollarni o'qituvchi va o'quvchi, ya'ni ustoz va shogirdlar bahamjihat hal etsa, bu to'g'ri. Takror aytamiz savollar 5-sinf bolasi uchun og'irlik qiladi, umuman, savol va topshiriqlarni soddalashtirish ma'qul.

Xulosamiz shuki, Alisher Navoiy mavzui 5-sinfda ilk bor o'tilishi hisobga olinsa, oson yo'ldan borish lozim. Shoir tajimai holining birinchi rejada berilishi to'g'ri, lekin o'ninchi maqolat va hikoyatning asl matni bilan ularning nasriy bayonlari o'rin almashgani ma'qul. Boisi doston matni 5-sinf bolasiga og'irlik qiladi, shuning uchun bolalarga oldin maqolat va hikoyatning mazmuni tushuntirilsa yaxshi bo'ladi. So'ngra doston matniga o'tilsa bo'ladi, lekin doston matni uchun maxsus lug'at zarur. Chunki matnda tushunilishi og'ir so'zlar juda ko'p, demak lug'atni hatto oldin berib borsa ham bo'ladi.

Yana bir niyatimiz shuki, ustoz emas, balki shogirdlar faollashtirilishi lozim, bu esa ko'zlagan maqsad sari yo'lni osonlashtiradi.

Eslatilganidek, Alisher Navoiy ijodidan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti bilan tanishtiruv boshlanadi. Birinchi, Bobur hayot yo'li berilgan, uning og'ir va ziddiyatli hayot yo'li o'quvchilarda chuqur taassurot qoldiradi. Boburning alamli yillari, tortgan azoblari, asosan, uning hayot yo'liga chizgilar beruvchi ruboiylari orqali ochib beriladi. Ayni shu ruboiylarning nasriy bayoni, uning mazmuni tag mag'zi o'quvchiga sodda tarzda tushuntirib beriladi. Boburning 5ta shu yildagi ruboiylari alohida urg'u berilgan holda tushuntiriladi va o'quvchida kuchli taassurot qoldiradi.

Shu bilan birga Boburning ruboiylari o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun havola etiladi. Bu ruboiylar 22 ta bo'lib, qiyin so'zlar lug'ati ham berib boriladi. Lug'at holda beriladi va o'sha so'zning mazmunini to'la shu o'rinning o'zida bilib oladi. Bu esa, shubhasiz, o'sha ruboiyning mazmunini anglab olishda kalit vazifasini o'tagan. Lekin baz'i ruboiylar bolalar uchun og'irlik qiladi, ruboiylarning ma'nosiga tushunmaslik esa, tabiiyki, anglashilmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bois ruboiylarning tushunarli, oson anglashga moslarini tanlashga harakat qilishi lozim edi. Shu xil anglashili mushkul ruboiylarning nasriy bayoni berilsa, ma'qul bo'lar edi, chunki o'quvchini qiyin ahvolga solib bo'lmaydi.

Ruboiylar izidan ruboiyga doir nazariy ma'lumot beriladi va qofiya hamda radif xususida mo'jaz tushuncha beriladi. Ruboiyning qofiyalanish usuli, qofiya odatan birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralarda kelib, uchinchi misraning ochiq qolishi kuzatiladi. Goho ruboiyda har to'rtala misrada qofiyaning ham mavjudligi kuzatiladi va bu xil ruboiylarning nomlanishi aytilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Lekin darslikda bular ochiq qoldirilgan, vaholanki 5-sinf bolasi uchun bu xil ma'lumotlar og'irlik qilmaydi. Chunonchi, ma'lumot uchun to'rt misrasi ham qofiyalangan ruboiy taronai ruboiy deyilish aytilsa yomon bo'lmas edi.

Shundan so'ng savol va topshiriqlar beriladi, ularda Boburning kimligi, avlodlari, ajdodlari, ruboiylari haqida so'raladi. Nihoyat ana shular asosida yozma ish tayyorlash topshiriladi, bu esa g'oyatda to'g'ri vazifadir.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Bobur hayoti va ijodiy faoliyati to'g'ri yoritilgan, bolalarga moslab tushuncha berilgan. Ammo qofiya va radiflarning ma'nolari, ya'ni misraning oxiri va izidan bormoq (qofiya), otga mingashmoq (radif) kabilar aytilsa yomon bo'lmas edi. Bu hodisalar o'quvchi bolalarning tushunchasini shakllantiradi va ruboiy haqidagi ma'lumotlarda o'zbek mumtoz adabiyoti namoyondasi Lutfiy ruboiylari ham eslatib o'tilishi joiz deb bilamiz. Bu xil ma'lumotlar bolalar tushunchasiga ijobiy ta'sir qiladi va ularning tushunchasini charxlaydi, albatta.

Bizningcha, 5-sinf darsligida mumtoz siymolarga kam o'rin ajratilgandek tuyuladi, boisi Navoiy va Bobur ijodining berilishi kamlik qiladi. Qolaversa, Navoiy va Boburlarning rasmi masalasida ham e'tirozimiz bor. Sababi darsliklardagi rasmlar talab darajasida emas. Vaholanki, Navoiy va Boburlarning o'z zamondoshlari tomonidan chizilgan suratlari zamonimizgacha yetib kelgan. Ana o'sha rasmlar darslik sahifasidan o'rin olsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki rasm va tasvirlar bolaga ko'proq ta'sir o'tqaza oladi hamda xotirada uzoq saqlab qoladi.

Achinarlisi shundaki, maktab darsliklarining 6-7-8-sinflar uchun mo'ljallangan darslik kitoblarida ham mumtoz siymolarga juda oz o'rin ajratilgan. Masalan, 6-sinf darsligida mumtoz siymolardan Alisher Navoiy, Rabg'uziy, Gulxaniy kabilar ijodi mavjud. 7-sinf darsligida esa Alisher Navoiy, Turdi Farog'iy, Uvaysiy, 8-sinf darsligida Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Navoiy, Nodira ijodi berilgan. Sirdan qaraganda mumtoz siymolarga kam e'tibor berilgandek tuyuladi. Aslida ham shunday, boisi mumtoz adabiyotimizning qolgan qator siymolari nechundir e'tibordan chetda qoldirilgan.